



MOTURIDIYLIK TA'LIMOTI VA HOZIRGI ZAMON mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi MAQOLALAR TO'PLAMI



Samarqand, 2025-yil 4 – 5-oktabr

Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon – respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Samarqand, 2025. – 309 b.

Ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi "Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-102-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishni rag'batlantirish, moturidiylik ta'limotiga xos bag'rikenglik va mo'tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish, yoshlarni vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlar, fikr va tavsiyalarni o'zida aks ettirgan. Mazkur to'plamda O'zbekistondagi Imom Moturidiy talimotining zabardast tahlilchilari va olimlarining tavsiyaviy xarakterdagi munosabatlari ushbu to'plamda aks etgan.

Sharaf Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2025-yil 29-sentyabrdagi 02 sonli yig'ini qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrirlar:

Sh.T.Ravshanov	<i>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand tamadduni tarixi kafedrası mudiri, (PhD), dotsent</i>
M.J.Buzrukov	<i>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand tamadduni tarixi kafedrası dotsenti. (PhD)</i>
A.A.Ungalov	<i>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand tamadduni tarixi kafedrası o'qituvchisi, (PhD)</i>

Taqrizchilar:

M.Amonov	<i>Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi, (PhD)</i>
I.I.Sulaymonov	<i>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mumtoz adabiyot tarixi kafedrası mudiri. Professor.</i>
A.R.Samadov	<i>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti falsafa va milliy g'oya kafedrası mudiri. Professor.</i>

Tahrir guruhi:

R.D.Yo'ldoshev, O.J.Irisqulov, J.B.Vafayeva, M.B.Yakubova, M.G'.Xasanov, A.S.Yakubov, Sh.Hamdamova, O'.Nazarov, Sh.Sayfullayev

1-2-SHUBALAR. IX–X ASRDA ILMIY-MA'NAVY MUHIT VA IMOM MOTURIDIYNING TA'LIMOTI; MOTURIDIYLIK TA'LIMOTINING TARIXIY ILDIZLARI VA MARKAZIY OSIYODAGI RIVOJLANISH BOSQICHLARI	
Шовосил ЗИЁДОВ <i>Мотуридий калом мактаби тарихини ўрганишда Чокардица қайроқ тошларининг ўрни</i>	7-12
Sarvar SAIDOV <i>Imom Moturidiyning kalom ilmiga oid qarashlari: falsafiy tahlil</i>	13-17
Shokir G'OFFOROV <i>From the history of the madrassahs of Uzbekistan</i>	17-29
Nadim MACIT <i>Ebu Mansûr el-Matûridi: peçelenmiş bir anlayışın öncüsü</i>	30-36
Q.M. NASRITDINOV, M.I. RAUPOVA <i>Abu Mansur al-Moturidiyning hayoti va ilmiy merosi tarixidan</i>	36-39
Жўрабек ЧЎТМАТОВ <i>Холид ибн Зиёд Термизий – термизийлар калом мактабининг ilk намоёндаси сифатида</i>	39-45
Muxlisa MIRZAEVA <i>Saljuqiylar davrida hanafiy-moturidiy birligi</i>	45-49
Shoira HAMDAMOVA <i>Al-Moturidiy va uning dualistlar hamda dahriylar bilan bahsi</i>	50-55
Jahongir TURDALIYEV <i>Ilk o'rta asrlar Sug'dda vujudga kelgan empirik bilimlarning Moturidiy ta'limotidagi o'rni</i>	55-65
Halima HABIBULLAYEVA, Muhabbatxon AGZAMOVA <i>Naqshbandiylik tariqatida Qur'on tafsiri va hadislar sharhining o'ziga xos jihatlarining qiyosiy tahlili</i>	66-70
Feruza ISMATULLAYEVA <i>Abu Mansur Moturidiy falsafiy merosining shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni</i>	71-73
Elbek G'ANIYEV <i>Abu Mansur al-Moturidiy ijtimoiy qarashlarining ilmiy tahlili</i>	74-77
Shohzod SAYFULLAYEV <i>Abu Mansur al-Moturidiy: Samarqanddan boshlangan ilmiy-ma'rifiy meros</i>	77-81
Muniba QODIROVA <i>IX-X asrlarda ilmiy-ma'naviy muhit va imom moturidiyning ta'limoti</i>	81-84
Rafiq O'RALOV <i>Abu Mansur al-Moturidiy hayoti va faoliyati</i>	85-87
Салохиддин ЎРОҚОВ <i>Абу Мансур Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Маҳмуд ал-Ҳанафий ас-Самарқандий</i>	87-90

Lutfiyaxon ULUG'OVA <i>Mahdumi A'zam hayoti va faoliyati</i>	90-94
3-4-SHO'BALAR. IMOM MOTURIDIYNING KALOM ILMIDAGI O'RNI VA ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI; MOTURIDIYLIK MEROSINING XX-XXI ASRLARDAGI TALQINI, ILMIY MEROSINIG QAYTA TIKLANISHI VA JADIDCHILIK HARAKATI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY SABOQLAR	
Azizbek UNGALOV <i>Islom sivilizatsiyasi va mahalliy an'analar o'rtasidagi sinkretlashuvda moturidiylik ta'limotining o'rni</i>	94-101
Санжарбек ДЖУМАНОВ <i>Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида Имом Мотуридиё илмий меросининг ўрганилиши</i>	101-107
Muxriddin JO'RAYEV <i>Imom Moturidiyning hadis ilmlariga munosabati</i>	107-112
Pirnazar RAJAPOV <i>Buyuk Saljuqiylar davri (1038-1157) da Xurosonda kalom ilmi rivoji</i>	112-115
Shoxida MIRAXMEDOVA <i>Moturidiy ta'limoti va bugungi diniy-ma'naviy hayot</i>	116-118
Z <i>Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kreativ yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini takomillashtirish: Imom Moturidiy qarashlari asosida</i>	118-120
Mehribon SHODIYEVA <i>Qalb va aql uyg'unligi: moturidiylik ta'limotining bugungi davrdagi talqini</i>	121-123
Nasiba QANDIMOVA <i>Motrudiylilik ta'limoti va hozirgi zamon</i>	124-127
Orzigul NE'MATOVA <i>"Husni xulq" tushunchasining shakllanishi va uning motrudiya ta'limotidagi ahamiyati</i>	127-133
Zumrad AGZAMOVA <i>Moturidiy asarlarida ma'naviy qadriyatlarning tutgan o'rni va ahamiyati</i>	134-139
Manzura BEKCHANOVA, N. XAKIMOVA <i>Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon</i>	140-143
Mashhura MATCHONOVA, SH.TO'XTIYEV <i>Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojida o'rni</i>	144-148
Ayubxon RAXMATXONOV <i>Yangi O'zbekistonda imom Moturidiy ilmiy merosiga e'tibor</i>	148-151
Q.R.MAHAMADJONOV, D.M.TURDIYEVA <i>Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon</i>	152-158

MOTURIDIY TA'LIMOTI VA BUGUNGI DINIY-MA'NAVIY HAYOT

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada IX–X asrlar islom tafakkuri rivojida yirik mutakallim va mufasssir bo'lgan Abu Mansur Moturidiy (870–944) hayoti va ilmiy merosi yoritilgan. Moturidiy hanafiylik asosida shakllangan moturidiylik aqidaviy maktabining asoschisi sifatida musulmon olamida keng e'tirof etiladi. Tadqiqotda uning ilmiy faoliyati, xususan, “Kitob at-Tavhid” va “Ta'vilot al-Qur'on” asarlarida ilgari surilgan asosiy aqidaviy va kalomiy qarashlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Moturidiy ta'limotining aql va vahiy o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi o'rni, inson erkinligi va taqdir haqidagi qarashlari hamda bugungi kunda diniy-ma'naviy hayot uchun ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari moturidiylik merosini zamonaviy sharoitda o'rganish va uni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Abu Mansur Moturidiy, kalom, moturidiylik, hanafiylik, aqida, tafsir, taqdir, inson erkinligi.

Kirish. Islom falsafasi va kalom ilmining rivojida yirik maktablar va ulkan allomalar muhim o'rin tutadi. Ana shunday ulug' mutakallimlardan biri Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy Samarqandiy (870–944)dir. U hanafiylik aqidaviy ta'limotining nazariy asoschisi, moturidiya kalom maktabining yaratuvchisi sifatida musulmon olamida keng e'tirof etilgan [3].

Asosiy qism. Moturidiy hayoti va merosini o'rganish bugungi kunda ham nafaqat diniy-falsafiy, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham dolzarbdir.

Moturidiy IX asr oxiri va X asr boshlarida Movarounnahrning yirik ilmiy markazi bo'lmish Samarqandning Moturid qishlog'ida tug'ilgan. Uning hayoti haqida ko'p tafsilotlar saqlanmagan bo'lsa-da, u mashhur faqih Abu Bakr al-Juzjoni va Abu Nasr Ahmad ibn Abbos al-Iyodiydan tahsil olgani manbalarda zikr etiladi [1].

Abu Mansur Moturidiy IX asr oxiri va X asr boshlarida Movarounnahrning yirik ilmiy markazi bo'lmish Samarqandning Moturid qishlog'ida tug'ilgan. Uning hayoti haqida manbalarda ko'p ma'lumotlar uchramaydi, biroq u o'z davrida diniy va falsafiy bilimlarni chuqur egallagan, hanafiylik fiqh maktabining yirik vakillari huzurida tahsil olgan.

Moturidiy mashhur faqih va muhaddis Abu Bakr al-Juzjoni, Abu Nasr Ahmad ibn Abbos al-Iyodiy kabi olimlardan dars olgan. U o'zining ilmiy faoliyatini Samarqandda olib borgan va umrining oxirigacha shu yerda yashab, ta'lim-tarbiya

bilan shug'ullangan. 944-yilda Samarqandda vafot etgan va hozirda "Chokardiza" qabristonida dafn etilgan [6].

Moturidiy asosan kalom, fiqh va tafsir fanlari bilan shug'ullangan. Uning asarlarida aqida masalalari, insonning erkinligi va taqdir, Allohning sifatlari, iymon va kufurning mazmuni, Qur'onni talqin qilish usullari haqida chuqur mulohazalar bayon etilgan.

"Kitob at-Tavhid" – kalom ilmidagi asosiy asari bo'lib, unda iymon, aqida, taqdir, inson erkinligi kabi fundamental masalalar izohlangan.

"Ta'vilot al-Qur'on" – Qur'on tafsiri bo'lib, unda oyatlar kalomiy va mantiqiy izohlangan. Shuningdek, fiqh va kalomga oid boshqa asarlar ham qalamga olgan [2].

Moturidiy ta'limotining asosiy g'oyasi – inson aql-idroki diniy masalalarda muhim vosita bo'lishi mumkinligidir. U taqdir va inson irodasi masalasida o'rtacha yo'lni tutgan: insonning amal va harakatlari Alloh tomonidan yaratiladi, biroq inson ularni tanlash va amalga oshirishda erkinlikka ega.

Moturidiy Allohning sifatlari haqida bahs yuritib, ularni Qur'onga mos tarzda izohlagan, mutaassib guruhlarning cheklangan qarashlarini inkor etgan. U fiqhda hanafiylikka, aqidada esa "moturidiya" nomi bilan mashhur bo'lgan mustaqil maktab asoschisi bo'ldi.

Xulosa. Abu Mansur Moturidiy musulmon dunyosida kalom va aqida ilmining yirik namoyandasi sifatida e'tirof etiladi. Uning hayoti, asarlari va ta'limoti nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda ham moturidiylik ta'limoti Markaziy Osiyo, Turkiya va boshqa hududlarda keng tarqalgan bo'lib, diniy-ma'naviy hayotda muhim o'rin egallaydi.

Abu Mansur Moturidiy IX–X asrlarda Movarounnahr ilmiy-ma'naviy muhitida yetishib chiqqan ulkan mutakallim va mufasssir sifatida islom ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. U yaratgan "moturidiylik ta'limoti" hanafiylik fiqh maktabi bilan uyg'unlashib, musulmon olamida keng tarqalgan aqidaviy maktab sifatida shakllandi. Moturidiy inson tafakkurini dinni anglashda muhim vosita sifatida e'tirof etib, aql va vahiy o'rtasidagi uyg'unlikni asoslab berdi.

Bugungi kunda moturidiylik nafaqat diniy, balki falsafiy va ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo'lib, u mutaassiblikka qarshi kurashishda, ilmiy asoslangan diniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Shunday qilib, Moturidiy hayoti va merosi islom falsafasi va musulmon tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Al-Bag'dodiy, A. (1991). "Tarix al-bag'dod". Qohira: Dar al-Kutub.
2. Al-Moturidiy, A. M. (2001). "Kitob at-Tavhid". Qohira: Maktaba al-Azhariya.

3. Karimov, A. (2005). “Islom falsafasi va kalom ilmi tarixi”. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Moturidiy, A. M. (1970). “Ta’vilot al-Qur’on”. Istanbul: Diyanet nashriyoti.
5. Nasriddinov, H. (2016). “Moturidiy ta’limotida inson va taqdir masalasi”. “Islomshunoslik jurnali”, №2, 90–102.
6. Rahmatullayev, Sh. (2012). “Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA KREATIV YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH: IMOM MOTURIDIY QARASHLARI ASOSIDA

Rajabova Zebiniso Anvarovna

BuxDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kreativ yozma nutq kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini takomillashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda yozma nutqning kreativ jihatlarini rivojlantirishda Imom Moturidiy ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Pedagogik jarayonda tafakkur erkinligi, dalillash madaniyati va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirishga asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada amaliy mashqlar va interfaol metodikalar batafsil keltiriladi.

Kalit so‘zlar. Kreativ yozma nutq, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari, pedagogik strategiya, Imom Moturidiy, tafakkur erkin

Kirish. Globallashtirish davrida ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ilmiy va madaniy integratsiyaning asosiy kalitidir. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari nafaqat til bilimiga, balki kreativ yozma nutq kompetensiyasiga ham ega bo‘lishlari zarur. Yozma nutqning kreativligi talabalarga mustaqil, mantiqiy va original fikrlar ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan, pedagogik strategiyalarni takomillashtirish dolzarb masalaga aylanadi. Imom Moturidiy (870–944) o‘z davrining yirik mutafakkiri bo‘lib, tafakkur erkinligi, ilmiy asoslangan dalillash va mantiqiy mushohada qilish tamoyillarini ilgari surgan. Uning qarashlari zamonaviy ta’lim jarayonida, xususan, yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘la oladi.

Moturidiy ta’limotida ilmiy tafakkur va axloqiy yondashuv bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. U yozma nutqni faqat mantiqiy izchil fikrlar emas, balki shaxsiy axloqiy qarashlar va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘lashni tavsiya qiladi.